

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA - MAXSUS
TA`LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK – TEXNOLOGIYA INSTITUTI
YENGIL SANOAT TEXNOLOGIYASI FAKULTETI

Himoyaga ruxsat etildi
fakultet dekani, dotsent
_____ U.Meliboyev
« ____ » _____ 2016 y.

Kafedra mudiri, dotsent
_____ X.Parpiyev
« ____ » _____ 2016 y.

5320900 - "Yengil sanoati mahsulotlarini konstruksiyasini
ishlash va texnologiyasi" (to`qimachilik sanoati)
ta`lim yo`nalishi bo`yicha bitiruvchi

Qoraboyev Samad Arabjon o`g`lining

**Urchuqsiz usulda paxta va lavsan tolasi
aralashmasidan ip yigirish texnologiyasini joriy
etish imkoniyatlari mavzusidagi**

BITIRUV MALAKA ISHI

Bitiruvchi:

S.Qoraboyev

Rahbar:

I.R.Azizov

Maslahatchilar:

I.R.Azizov

A.Akramov

NAMANGAN 2016 YIL.

MUNDARIJA

Kirish	3
1.Iplarning xossalari shakllanishini texnologik omillari	6
1.1. Yigirish usullarni imkoniyatlari va ularni rivojlanishi	6
1.2. Urchuqsiz usullarda ipni shakllanishi	8
1.3. Mahsulotni yigirishga tayyorlash	12
2. Urchuqsiz usulda ip yigirshi jihozlaridan foydalanish uchun ilg`or yechimlari	15
2.1.Mahsulot tavsifi	15
2.2. Iplar ishlab chiqarish uchun xom ashyo tanlash va uni tekshirish	18
2. 3.Yigirish tizimi va usulini asoslash	22
3. Yigirish rejasini tuzish	33
3.1. Yigirish mahsulotlarining chiziqli zichligi va cho`zishni asoslash	33
3.2.Ipni pishitish darajasini hisoblash	35
3.3.Mashinalarni chiqaruvchi a`zolarini tezliklarini qabul qilish va asoslash	35
3.4.Mashinalarning nazariy ish unumdorligini aniqlash	37
3.5. Mashinalarning foydali vaqt koefitsenti va ishlash koefitsentlarini asoslash	37
3.6.Jihozlarning unumdorlik normasi va hisobiy unumdorliklari	38
3.7.Ip, yarim tayyor mahsulot va chiqindilarni aralashmadan chiqish miqdorlarini aniqlash	39
3.8. Texnologik jihozlardan olinadigan yarimmahsulotlarning o`lchamlari va massalarini tanlash	42
3.9. O`timlar bo`yicha soatli topshiriqlarni hisoblash va taqsimlash	43
3.10. Jihozlar sonini aniqlash	44
3.11. Yigirish rejasini qayta hisoblash	45
4. Yigiruv korxonalarida yorug`likni me`yorlashtirish	49
5. Korxonaning tashkiliy- iqtisodiy ko`rsatkichlari hisobi	62
5.1. Korxonada ishlab chiqarish dasturi	62
5.2. Xom ashyo balansi tuzish	65
5.3. Tugallanmagan ishlab chiqarish	65
5.4.Korxonada elektr energiya sarfi	71
Xulosa va tavsiyalar	75
Adabiyotlar	77

KIRISH

Tayyor to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish tarmoqni rivojlantirishni bosh strategig yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Korxonalarni rivojlantirish va samaradorligini oshirishda modernizatsiya qilish, yangi assortimentlar yaratish alohida o'rin tutadi. Bunda asosiy yo'nalish mahsulot turini ko'paytirish va uning sifatini iste'mol talablari darajasida bo'lishini ta'minlash bo'lib qolmoqda. Aynan ushbu yo'nalishda O'zbekiston Respublikasining to'qimachilik sanoatini rivojlanishi amalda jadal bormoqda. Bunga so'nggi yillarda qurilgan yangi va qo'shma korxonalar soni, jalb etilgan mablag' va investitsiya miqdorini, sanoat ishlab chiqarishini o'sishini ko'rsatish mumkin. Xom ashyo turiga boy respublikada bu borada hali qilinishi lozim bo'lgan ishlar salmog'i hali katta. Birinchi navbatda paxta tolasini qayta ishlash ulushini oshirish, jahon andozasi talablariga mos ip va ip gazlamalar ishlab chiqarishni ko'paytirish vazifalari hal etilmoqda.

Tabiiy va kimyoviy tolalarni yigirishning ilg'or, jahon andozalari talablariga javob beradigan texnologik jixozlarning tuzilishi, imkoniyatlari, takomillashtirish yo'nalishlari, ishlab chiqarishni tashkil etish va maxsulot sifatini ta'minlash, nazorat qilishda yangi tenikani joriy etish, uning samaradorligini belgilash asosiy vazifadir.[1]

Rivojlanish tobora jadallashib borayotgan davrda to'qimachilik sanoatida ilmiy amaliy jixatdan asoslangan, ishlab chiqarishga joriy etilish ko'zda tutilgan, yangi texnika va texnologik yechimlar, avval ma'lumot berilmagan jixozlar va jarayonlarni o'rganish asosida mukammal tavsiyalarni ishlab chiqish va ularni joriy etishni sanoat xodimlari olidagi asosiy maqsad hisoblanadi.

Amaldagi korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish muhim vazifalar jumlasiga kiradi. Bu vazifa avvalambor

iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari, eksportga yo`naltirilgan va mahalliyashtiriladigan ishlab chiqarish quvvatlariga tegishlidir.

To`qimachilik sanoati uchun texnika va texnologiyani rivojlanishi jumladan ip yigirish jihozlarini imkoniyatlarini shu qadar oshirib kelmoqdaki, ayrim iplarni yigirish usullarini tanlash masalasi chuqur tahlilni taqozo etmoqda. Bunda yigirilgan ipni qaysi usulda ishlab chiqarish samarasi yuqori bo`lishi bilan bir qatorda uni sifati, jumladan mexanik xossasi qanday bo`lishi birga hal etilishi lozim bo`lmoqda.

To`qimachilik sanoatida yuqori sifatli jahon andozasiga javob bera oladigan mahsulot ishlab chiqarishda ilg`or texnologiya va texnikani joriy etish muhim omil hisoblanadi. Bunday texnika va texnologiya yevropaning ko`plab mamlakatlarida ishlab chiqariladi. To`qimachilik mashinasozligida alohida o`rinda turgan Rieter kontserning mustaqil bo`limi bo`lgan gurux ikkita firma: «Mashinenfabrik Rieter AG» va «Shubert & Zaltser Mashinenfabrik AG» dan iborat. Ushbu guruxda yigirish jihozlarini yaratish borasida ilmiy tadqiqot ishlari olib boriladi.

Ishlab chiqarilgan mahsulot sifatini nazorat qilib borish uchun korxonalarda maxsus laboratoriyalar mavjud bo`lib, u yerdagi sinov asbob-uskunalarini Yaponiya, Italiya va Germaniyada ishlab chiqarilgan.

Yangi yigirish korxonalarini loyihalash va qurish, mavjud korxonalarni qayta jihozlashning asosi jihozlar va mashinalarning yuqori unmdorligini, xom ashyodan unumli foydalanishni, yuqori sifatli ip yigirishni ta`minlaydigan ilg`or texnika va texnologiyani joriy etishdan iboratdir.

Bu o`rinda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, halqaro sifat standartlariga o`tish bo`yicha qabul qilingan tarmoq dasturlarini amalga oshirishni tezlashtirish vazifasi qo`yilmoqda. O`z navbatida, bu mamlakatimizning ham tashqi, ham ichki bozorda barqaror mavqega ega bo`lishini ta`minlash imkonini beradi. Bundan ko`rinib turibdiki qabul qilinadigan jihozlar korxonaning yaqin kelajakda yuqori texnik-iqtisodiy ko`rsatkichlar bilan ishlay

olishini, qo`shimcha sarf xarajatlarni imkoni boricha kamroq sarflashni ta`minlashi lozim.[2]

Hozirgi kunda to`qimachilik sanoati korxonalarini texnik qurollanganlik darajasini turlicha bo`lganligi iplardan foydalanish chegarasini cheklab qo`ymoqda. Birinchidan, klassik texnologiyada ishlab chiqarilgan iplarning sifati zamonaviy talablarga to`la mos emas. Ikkinchidan, qo`shma korxonalarning ko`plarida tayyorlanayotgan iplar trikotaj matolari uchun mo`ljallangan. Ularning sifati jahon andozalariga javob bersada, Respublikamizda sifatli gazlamalar ishlab chiqarishni o`shishiga, assortimentini ko`payishiga imkon bermayapti.

Yuqoridagi mulohazalar va mahsulotga bo`lgan ehtiyojni hisobga olib ushbu malka ishida ip yigirish uchun turli texnologik jihozlar kompleksidan foydalanib ip yigirishning texnologik talablarini aniqlash bosh maqsad etib qo`yildi. Bunda urchuqsiz yigirish usullarini texnologik imkoniyatlari va ularni samaradorligiga ta`sirini baholshga e`tibor qaratildi.

1. IPLARNING XOSSALARI ShAKLLANISHINI TEXNOLOGIK OMILLARI

1.1. Yigirish usullari imkoniyatlari va ularni rivojlanishi

Ip yigirishda texnologik jarayonlar tolalari parallel joylashgan piltachamichka hosil qilish va uni eshib ipga aylantirish hamda uni biron shaklda o`rab olish bilan yakunlanadi. Aynan ushbu jarayonlarni bajarish tartibi, ularni ketma-ketligi ip yigirish usullarini takomillashtirish omili va muammolari bo`lib qolmoqda.

Hozirgi kunda tolalardan ip yigirishning bir nechta usullari mavjud bo`lib, ularni halqali va urchuqsiz usullarga bo`linadi. Halqali usulda ip yigirishni tezligi urchuqning tezligi bilan cheklab qo`yilgan bo`lsa, urchuqsiz usullarda yigirish qurilmalarini (rotorlar, kameralar,) aylanish soni bir necha marta ortiq bo`ladi. Halqali usulda ip yigirishda pishitish va o`rash jarayonlari birgalikda amalga oshirilishi ip o`raladigan naychani o`lchamlarini cheklab qo`yadi. Agarda naycha o`lchami kattalashtirilsa ipni tarangiligi ortadi va energiya sarfini ko`payishiga olib keladi. Shu sababli ip yigirishda unumdorlikni oshirishni eng maqbul yo`li pishitish va o`rash jarayonlarini bajarilishini alohida mexanizmlar yordamida amalga oshirish hisoblanadi. Bunday imkoniyatga ega bo`lgan mashinalarda urchuqdan foydalanilmaydi va shuning uchun ham ularni urchuqsiz usullar deb yuritiladi.

Halqali usulda yarim tayyor mahsulot - pilik hosil qilinib undan cho`zish asbobi yordamida kerakli chiziqli zichlikgacha ingichkalashtirilib cho`zilgan piltachani urchuq, halqa va yugurdak yordamida pishitib ip hosil qilinadi. [3]

Urchuqsiz usulda ip yigirishda yarim mahsulotni ingichkalashtirish cho`zish usulida emas, balki piltadagi tolalarni tarab ajratish yo`li bilan amalga oshiriladi. Ushbu tolalardan kerakli chiziqli zichlikdagi ip hosil qilish uchun tolalar maxsus kameralarga uzatiladi va u yerda ko`p marta qo`shilib piltacha-michka hosil

qilinadi. Michkani pishitish va o`rash jarayonlari ham amalga oshirish tartibi va mohiyatiga ko`ra farq qiladi.

Urchuqsiz usullar XX asrning 70-yillaridan boshlab dunyoda keng miqyosda joriy etila boshladi va takomillashtirilishni yangi davriga o`ta boshladi. Hozirgi kunda o`nlab firmalar hamda kontsernlar yakka va korporativ tizimda urchuqsiz usullarga asoslangan yigirish mashinalarini ishlab chiqarmoqdalar.

Zamonaviy halqali yigirish mashinalarida urchuqlar bir minutda 25000 martagacha aylansa, pnevmomexanik yigirish mashinalarining kameralari 100000-200000 martagacha aylanishi mumkin. Bundan ko`rinib turibdiki, urchuqsiz usullarda ip yigirishni unumdorligi bir necha marta yuqori bo`ladi.

Ta`kidlash lozimki, urchuqsiz usullarda tolalar tarovchi mexanizmida bir-biridan ajratilib, so`ngra qo`shilganligi oqibatida ipni uzilish kuchi ancha (10-20%) kam bo`ldai. Shuning uchun urchuqli (yoki halqali) usullar nisbatan ko`proq qo`llaniladi.[6]

Pnevmomexanik usulda ip yigirish uchun tabiiy va kimyoviy tolalarning tarkibida kalta tolalarni bo`lishi katta ahamiyatga ega emas. Agarda halqali usulda yigirilganda kalta tolalar notekislik kelib chiqishini sababchisi bo`lsa, urchuqsiz usullarda bunay holat kuzatilmaydi. Cho`zish asbobida kalta tolalarni harakatini nazorat qilish qiyinligi tufayli ular notekis suriladi va oqibatda ipning notekisligi ortadi. Urchuqsiz usullarda, xususan kamerali yigirish mashinalarida tolalar oqimi kameraning ichiga joylashib borgani uchun ularni uzunligi bo`yicha notekisligi bir tekisda michka hosil bo`lishiga ta`sir etmaydi yoki ta`siri kam bo`ladi. Shuning uchun hamda yigirish kamerasida tolalar oqimi davriy qo`shilib borganligi uchun kamerali usulda tayyorlangan iplarning notekisligi kam bo`ladi.

Uyurma havoli usulda ip yigirishda tolalar havo yordamida uzatiladi va pishitish vint shaklida harakatlanayotgan havo oqimi yordamida amalga oshiriladi. Ushbu usulda ip hosil qilishni aeromexanik yoki pnevmatik usul (ayrim manbalarda aerodinamik) deb nom olgan variantlari mavjud.

Ushbu usulda ip yigirishning asosiy xususiyati shundaki, ipni yigirish va pishitish jarayonlari aylanuvchi havo oqimi yordamida bajariladi, energiya kam sarflanadi. Shuning uchun ham bu usulda ip yigirish pnevmomexanik usulga qaraganda tejamliror bo`ladi.

1.2. Urchuqsiz usullarda ipni shakllanishi

Yigirishning asosiy maqsadi tarqoq tolalardan yaxlit, belgilangan chiziqli zichlikdagi, uzluksiz, pishiq va qayishqoqlik xususiyatlariga ega bo`lgan bir tekis ip hosil qilishga qaratilgan.

Yigirish mashinalarida bajariladigan jarayonlarning mohiyati yarim tayyor mahsulotni ingichkalashtirish, pishitish va o`rashdan iborat. Ushbu uchta asosiy jarayonni bajarish tartibi va bajaruvchi mexanizmlari yigirish usullarini o`ziga xosligini belgilaydi. Barcha yigirish usullarida yarim tayyor mahsulotni ip darajasigacha ingichkalashtirish va hosil bo`lgan ipni o`rash jarayonlari mohiyati hamda bajaruvchi mexanizmning tuzilishi jihatidan yaqin bo`lgani holda, ipni hosil qilish va pishitish usuli keskin farqlarga ega. [7]

Urchuqsiz usullarda ip yigirishni samaradorligi eng birinchi navbatda mashinada unumdorlikni yuqoriligi bilan xarakterlanadi. Yuqorida ko`rsatilganidek zamonaviy pnevmomexanik yigirish mashinalarida yigirish kamerasining aylanish tezligi  $200000 \text{ min}^{-1}$  gacha borishi mumkin. Bu tezlik halqali yigirish mashinasining texnik imkoniyatidan 8 marta katta ekanligini ko`rsatadi. Shuningdek mashinada texnologik jarayonlarni bajarilishi va nazorat qilinishida ko`plab turdagi avtomatik ishlaydigan moslamalarni qo`llanilishi nafaqat nazariy jihatdan, balki amalda ham unumdorlikni oshirilishiga imkon beradi. Mashinaning va ishchining mehnat unumdorligini oshishi ip ishlab chiqarish hajmini ham ko`paytirishga xizmat qiladi. Agarda o`rtacha chiziqli zichlikdagi ipni yigirishda halqali yigirish mashinasining ilg`or texnologiya asosida ekspluatatsiya qilish sharoitida bitta urchuqning nazariy unumdorligi bir

soatda 15-20 grammni tashkil etasa, pnevmomexanik usulda bu ko'rsatkich 65-160 grammgacha borishi mumkin. Biroq mashinaning texnik va texnologik o'ziga xosligi, foydali vaqt koeffitsientini (F.v.k.) kattaligi hisobiga unumdorlikni me'yoriy ko'rsatkichlari orasidagi farqlar yanada kattaroq bo'ladi. [6]

Pnevmomexanik yigirish mashinasini narxi odatda halqali mashinaga nisbatan kattaroq bo'ladi. Pnevmomexanik yigirish mashinalarini o'rnatilishi, tannarxi yuqoriligi asosiy fondlarni ortishiga olib kelishi mumkin. Halqali usulda ip yigirilganda pilik mashinasini o'rnatish lozim bo'lsa, pnevmomexanik usulda pilik tayyorlash o'timi umuman yigirish tizimidan chiqarib yuboriladi. Unumdorligi yuqori bo'lganligini nazarda tutadigan bo'lsak bir xil miqdordagi ip ishlab chiqarish uchun yigirish mashinalari soni ham kamayadi. Biroq shu o'rinda mashinasidagi urchuqlar soni bilan bitta pnevmomexanik yigirish mashinasidagi kameralar soni teng bo'lmaganligi uchun mashina sonidagi farqlar katta bo'lmastligi mumkin.

Ishlab chiqarish xarajatlarini kamayishiga olib keluvchi omillar jumlasiga tolalar aralashmasidan texnologik o'timlarda chiqindilarni chiqishini kamayishi, ish haqi fondini kamayishi, ishlab chiqarish maydonini qisqarishini ko'rsatish mumkin. Halqali usulda ip yigirilganda pilik o'timida hosil bo'ladigan chiqindilar pnevmomexanik tizimda to'la kamaysa (o'timni yo'qligi sababli), yigirish mashinasida hosil bo'ladigan chiqindilardan michka chiqindisi qariyb 30 marta kam bo'ladi. Ish haqi fondini kamayishi asosan ishchilar sonini kamayishi bilan bog'liq. Pnevmomexanik usulda ip yigirish korxonasida ishchilar soni o'rtacha 20 % ga kamayadi. Mashinalar sonini kamayishi hisobiga korxonadagi ishlab chiqarish maydoni ham qisqaradi. Bunda ishlab chiqarish binosidan foydalanish xarajatlari kamayadi.

Mashinalarning konstruktiv murakkabligi, katta miqdorda elektr energiyasini iste'mol qilishi, ulardan foydalanish jarayonidagi sarf xarajatlarni biroz ortishiga olib keladi. Umuman olganda pnevmomexanik usulda ip yigirishda iqtisodiy samaradorlikni ortishi barcha korxonalarda bir darajada bo'lishi mumkin deyish

to'g'ri bo'lmaydi. Chunki tolalarni yigirishga tayyorlash texnika va texnologiyasi, o'rnatiladigan yoki o'rnatilgan jihozlarni samaradorligi korxonaning umumiy iqtisodiy samaradorligida katta ulushga ega. Shunday qilib, pnevmomexanik usulda ip yigirish mashinalarini joriy etilishi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarni ayrimlarini ortishiga olib kelsa, ayrim ko'rsatkichlarni kamayishiga sabab bo'ladi. Umumiy sarf xarajatlarni qisqarishi hisobiga ipning tannarxi sezilarli darajada kamayadi. Bu esa korxonaning sof foydasini oshganligida ko'rinadi.

Urchuqsiz yigirishning boshqa usullarini texnik-iqtisodiy samaradorligi pnevmomexanik usulni joriy qilinishidan o'ziga xos farqlarga ega bo'lishi mumkin. Masalan yuqori chiziqli zichlikdagi iplarni ishlab chiqarish korxonalarida urchuqsiz usulni joriy etilishini samaradorligi juda katta bo'lsa, paxta va kimyoviy tolalar aralashmasidan o'rta chiziqli zichlikdagi iplarni yigirishda, kichik chiziqli zichlikdagi iplarni yigirishda samaradorlik uncha katta bo'lmaydi. Bunda mashinaning turi, rusumi, texnik va konstruktiv imkoniyatlari, avtomatlashtirish darajasi ham muhim omillar hisoblanadi. Ayrim usullarni joriy etilishi texnikaning hozirgi rivojlanish bosqichida samarali yoki kam samarali hisoblansada, ayrim turdagi iplarni yigirishda o'ziga xos imkoniyati tufayli joriy etilgan. [7-9]

Urchuqsiz usullarni iqtisodiy samaradorligi shuningdek ishlatiladigan xom ashyo bilan bog'liq. Texnik va konstruktiv imkoniyatlariga ko'ra urchuqsiz usullarda barcha turdagi tabiiy va kimyoviy tolalardan ip hosil qilish mumkin. Bunda kalta tolalarni salbiy ta'sirini kamayishi, chiqindilar tarkibidagi tolalarni ishlatilishi mumkinligi va tola turiga moslab mashinani konstruktiv rostlashda katta o'zgarishlarni talab etilmasligi muhim jihatlar jumlasiga kiradi. Masalan, kalta tolalar va tolali chiqindilardan ip yigirishda halqali yigirish mashinalari (apparat tizimida) o'rniga urchuqsiz yigirish mashinalarini qo'llanilishi iqtisodiy samaradorlikni oshirishda katta o'rin tutadi.

Zamonaviy pnevmomexanik yigirish mashinalarida iplarni nafaqat tsilindr shaklidagi, balki konus shaklidagi bobinalarga o'ralishi va o'rash jarayonini avtomatik rostlanishi, ip sifatini nazorat qilish qurilmalarini qo'llanilishi ipni qayta


o`rash o`timini ham qisqartirilishiga olib keladi. Qayta o`rashda chiqindi chiqishini kamayishi va boshqa sarf xarajatlarni kamayishi iqtisodiy samaradorlikni oshirishda yana bir muhim imkoniyat hisoblanadi. Ip o`ramalari sifatli hosil qilinganda, to`lgan bobinalarni avtomatik chiqarib olinishi, ularni avtomatik qurilmalar yordamida tashilishini tashkil etilishi ham iqtisodiy samarani oshishiga manba sifatida qo`shiladi. Shunday qilib iqtisodiy samara olish va uni ko`p yoki oz bo`lishi nafaqat jihozning imkoniyatiga, balki texnologiyani tashkil etilishi va uni boshqarilishiga ham bog`liq. Mashinada avtomatlashtirish mumkin bo`lgan jarayonlar yoki vazifalarni barchasini ham qo`llanilishi foyda keltirmasligi mumkin.

Pnevmomexanik yigirish mashinalarini takomillashtirilishida bir qator yangi yechimlar topilganki, ularni tavsiya etishni o`zigina uni qabul qilish uchun yetarli asos bo`la olmaydi. Shuning uchun ko`proq tajribalarni o`rganish va ularni tahili asosida maqbul qaror qabul qilinishi maqsadga muvofiq.

Uyurma havo oqimini vint chizig`i bo`ylab harakatlanishini yuzaga keltirishni eng sodda yo`li tangentsial yo`nalgan oqimni kiritib aerodinamik aylanishni sodir qilish hisoblanadi. Shunday ta'sir etish yo`li bilan ip hosil qilish qurilmasi quyidagicha ishlaydi (1-rasm).

Qurilmaning yuqori qismi yopiq trubasimon bo`lib, uning ochiq pastki qismda uzluksiz ravishda ichiga teshik 1 orqali havo oqimi kiradi va uning ichidagi tolalarni harakatlantiradi. Teshik 2 dan ham (bunday teshiklar bir nechta bo`lishi mumkin) mashinaning ichiga havo oqimi kirib, ichida uyurma hosil qiladi. Yigirilgang ip qurilmaning markazidagi teshikdan tortib chiqariladi.

Alohida - alohida bo`lib ajralgan tolalar ta'minlovchi moslama (cho`zish asbobi yoki tarovchi valik) orqali yigiruv kamerasiga beriladi va markazdan qochirma kuch ta'sirida yigiruv kamerasining ichki sirtiga siqiladi. Havo oqimi ularni pastga siljitadi. Siljish traektoriyasi vintsimon chiziqqa yaqin yoki ekvidistant havoning uyurma harakatiga yaqin bo`ladi.



1-rasm. Uyurma havoli usulda ip hosil qilish

Tolalar oqimining vintsimon chizig'i bilan yigiruv kamerasining bo'ylama o'ki o'rtasidagi burchak bilan belgilanadi. Ta'minlovchi moslama (apparat) dan tolalarning yigiruv kamerasiga siljishi yigiruv kamerasida hosil bo'lgan havoni siyraklanishi hisobiga sodir bo'ladi.

1.3. Mahsulotni yigirishga tayyorlash

Urchuqsiz usullarda ip yigirishning zamonaviy texnologiyasi halqali usulda ip yigirishdan asosan pilik tayyorlash o'timini qo'llanilmasligi bilan farqlanadi. Paxta tolasidan odatda kard yigirish tizimida pnevmomexanik usulda ip tayyorlanadi. Qayta tarash tizimida pnevmomexanik usuldan juda kam holatlarda foydalaniladi. Biroq apparat yigirish tizimida asosan urchuqsiz usullarda, jumladan pnevmomexanik usulda yuqori chiziqli zichlikdagi iplar yigiriladi. Shuning uchun pnevmomexanik yigirish usuli urchuqsiz usullar ichida eng keng qo'llaniladigan usul hisoblanadi.

Tolalarni yigirishga tayyorlash texnologiyasini mohiyatini tahlili bo'yicha dastlabki xulosalar halqali usul uchun tayyorlangan piltalarni urchuqsiz usullarda qiyinchiliksiz qayta ishlash mumkinligini ko'rsatadi. Biroq, amaldagi tajribalar yigirish korxonasining tayyorlov bo'limi yigirish mashinasining turiga qarab turli texnologik tizimdan (jihozlar turi va ularni ketma-ketligi) iborat bo'lishi lozimligini ko'rsatdi.[12]

Tolalarni yigirishga tayyorlashda albatta tola turi va aralashma tarkibiga ko'ra zarur tizim, jihozlar turi va rusumlari tanlanadi. Ta'kidlash lozimki, pnevmomexanik usulda ip yigirishda piltaning sifatiga qo'yiladigan talablar ancha yuqori.

Ushbu talablarga asosan tolalarni titish – tozalash agregati yuqori tozalash samaradorligiga ega bo'lishi lozim. Paxta tolalarini titish va tozalash mashinalarini takomillashtirishni yo'nalishlaridan biri ko'plab pnevmatik tizimlar va qurilmalarni qo'llashga qaratilmoqda. Bunday qurilmalar mashinada tozalash samaradorligini, jumladan mayda zarralardan tozalash imkoniyatini oshiradi. Tozalash samaradorligi esa pnevmomexanik yigirish usulida juda muhimdir.

Pnevmomexanik usulda ip yigirishda mashinalarni tozalash qurilmasiz yoki tozalash qurilmasiga ega bo'lgan turlari qo'llaniladi. Agarda yigirish mashinasida tozalash qurilmasi o'rnatilmagan bo'lsa piltaning tarkibida xas-cho'plarni miqdori juda kam bo'lishi kerak.

So'nggi yillarda yaratilayotgan titish-tozalash mashinalari va ularni agregatga birlashtirishda bir qator yutuqlarga erishilmoqda. Masalan, Truchler firmasi turli rusumlardagi tozalash mashinalarini va ularni agregatlarda joylashtirish tartibini tavsiya qiladi. Bunday mashinalarda umumiy tozalash samaradorligini oshirish bilan birgalikda mayda changdan tozalash samaradorligi ham yuqori. Mashinalarni turi, rusumi va texnik ko'rsatkichlari tola turiga, aralashma tarkibiga qarab tanlanadi.

Hozirgi kunda pnevmomexanik yigirish mashinalarini ko'plari tozalash qurilmasiga ega. Bunday mashinalar tarkibidagi xas-cho'p miqdori 5 % dan ortiq

bo'lgan aralashmalarni ham qayta ishlash imkoniyatini bermoqda. Yigirish mashinasida tozalash imkoniyati va uning samaradorligi ko'p omilli bo'lib, birinchi navbatda piltani diskretlovchi qurilmaning ishlashiga bog'liq. Tozalash samaradorligini ipni sifatiga qo'yilgan talablarga muvofiq belgilanadi. [13]

Shunday qilib pnevmomexanik usulda ip yigirishda pilta ravon va toza bo'lishi, yaxshi titilmagan tolalar kompleksi juda kam bo'lishi lozim. Ip yigirish uchun xom ashyo turi va aralashma tarkibi nafaqat texnologik, balki iqtisodiy omillarni ham hisobga olgan holda tanlanishi yuqori sifatli ipni samarali yigirishni ta'minlaydi. Jihozlardan to'g'ri va to'la foydalanish uchun ularni unumdorliklari yuqori bo'lishi maqsadga muvofiq.

2. URChUQSIZ USULDA IP YIGIRSHI JIHOZLARIDAN FOYDALANISH UCHUN ILG`OR YEChIMLARI

2.1.Mahsulot tavsifi

To`qimachilik materialshunosligi ta`rifiga ko`ra ip gazlamalar asosan yengil va o`rtacha zichliklarda bo`ladi. Ip gazlamalar turlari juda ko`p va xilma - xildir. Ularni ishlab chiqarishda turli chiziqliy zichlikdagi yakka, pishitilgan va shakldor iplar ishlatiladi. Ayrim hollarda bu to`qimalarni ishlab chiqarishda sof paxta tolalaridan yigirilgan iplardan tashqari, aralash (paxta tolasi bilan kimyoviy tolalar aralash) masidan yigirilgan iplar ham ishlatiladi.

Gazlamalar assortimentining katta qismini chit, bo`z, satin, batis, markizet, mal-mal, doka va boshqalar tashkil etadi. Savdo preyskuranti bo`yicha ip gazlamalar bir necha guruhlariga bo`linadi: chitlar, bo`zlar (surup), ich kiyimlik to`qimalar, satinlar, ko`ylaklik to`qimalar, kiyimlik, maxsus to`qimalar va alohida buyumlar. Bo`z gazlamalar ko`ylakbop gazlamalar jumlasiga kiruvchi, savdo tasnifiga asosan alohida guruh hisoblanadi. Bo`zlar tuzilishiga va to`qilishiga ko`ra oddiy to`qima bo`lb, ularni o`rtacha va yo`g`on iplardan to`qiladi. Iplarni yakka, bir qavatli turlari ishlatiladi. [12]

Gazalamaga qo`yiladigan eng muhim va bosh talab ularni chidamliligi, gigroskopliligi, yengil va yumshoqligi. matolarni oddiy o`rilishlar asosida to`qiladi. Bizning loyihamizda ko`rsatilgan Ko`ylakbop mato «Drujba to`qima ko`ylak tikish uchun mo`ljallangan. Uning yuza zichligi 107 g/m^2 ga teng bo`ladi. To`qimani tavsifi va unga qo`yilgan talablarga asosan loyihadagi to`qimani 29 teks chiziqliy zichlikdagi iplardan to`qish belgilangan. To`qima tayyor bo`lgandan keyin uni bo`yash, gul bosish amalga oshiriladi.

Shunday matolarning texnik ko`rsatkichlari 1-jadvalda va iplarni xossalriga qo`yilgan talablar 2-jadvallarda keltiriladi. [14,15]

1-jadval

Gazlama nomi	Gazlama artikuli	Gazlama eni, sm	Gazlamalarning texnik ko'rsatkichlari					10sm dagi iplar soni		qisqarish	
			Ipning chiziqli zichligi, teks			Iplar soni		P_T	P_A	a_T	a_A
						jami	Shundan qirg'oq iplari				
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
Ko'ylakbop mato «Drujba»	1095	91	29 33% Vpef	29 33% Vpef	29 33% Vpef	1416	48	153	175	5	9,5

1-jadvalni davomi

Gazlama nomi	nomeri	Tig' 1 ta tishga ip soni		o'rilish	Dastgoh turi	Gazlamani yuza zichligi, g/m ²	Chikindi miqdori		100 p.m. gazlama uchun ip sarfi, kg	
		asos	qirg'oq				Tanda to'yicha	Arqoq bo'yicha	Tanda to'yicha	Arqoq bo'yicha
1	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22
Ko`ylakbop mato «Drujba	70	2	4	polotno	ATPR	107	0,74	0,16	4,258	5,255

[6]

To'quvchilikda foydalanishga mo'ljallangan iplarning fizik mexanik xossalari
(O'zDSt 2321:2011)

Ipning chiziqli zichligi, Tex tuzilishi	Konditsion chiz. Zichlikni ruxsat etilgan farqi,%	Navi	Yakka ipni sinalganda				Chiziqli zichligi bo`yicha variatsiya koef-ti
			Ipning nisbiy uzilish kuchi		Uzilish kuchi bo`yicha variatsiya koef-ti	Sifat ko`rsat kichi	
			cN/tex	gf/tex			
28 дан 30 гача	2,0 -2,5	birinchi	10,3	10,5	12,0	0,87	3,5
		ikkinchi	9,3	9,5	13,5	0,70	4,5
		uchinchi	8,8	9,0	15,5	0,58	5,0

2.2. Iplar ishlab chiqarish uchun xom ashyo tanlash va uni tekshirish

Iplarning turi va ishlatilish ko'lamiga muvofiq tolaning turi va aralashma tarkibi tanlanadi. Quyilgan talab darajasidagi ip yigirish uchun ishlatiladigan tolalar aralashmasi sortirovka deb yuritiladi.

Paxta tolasi nuqsonlari va iflos aralashmalarning miqdoriga ko'ra o'zining har bir naviga qarab ko'rsatilgan talablarga muvofiq sinflarga bo'linadi. Konditsion vaznni hisoblash uchun namlikning me'yorlangan vazniy nisbati -8,5%. Namlikning eng kichik vazniy nisbati - 5.0 %. [16]

Ushbu ishda 25 teks va 29 teks iplar uchun o'rta tolali paxta tavsiya etiladi. Halqali usulda ip yigirish uchun quyidagi (3-jadval) tipaviy aralashma tavsiya etilgan.

3-jadval

Tavsiya etilgan tipaviy sortirovkalar

Iplarning nominal chiziqli zichligi, teks	Iplarning nominal nomeri	Paxta tolasi aralashmasi
29	34	4-I, 4-II

Ishning maqsadiga muvofiq tavsiyalarga asoslanib, yangi standartlarga asosan barcha iplar uchun 5-I, 5-II, tipaviy aralashmani tanlaymiz.

Tavsiya etilgan tipaviy aralashmaga asosan paxta tolasining selektsiya navini tanlaymiz. Ushbu paxta tolasining texnologik xususiyatlari va xossalari 4-jadvalda keltirilgan.[17]

PAXTA TOLASINING SIFAT KO'RSATKICHLARI

Paxta tola-sini tipi	Seleksion navi	Terish usuli	Sanoat navi	Namlilik, %	Shtapel uzunlik, mm	Var-ya koef-ti	Pishish koef-ti	Chiziqli zilik, mteks	Uzilish kuchi, sN	Nisbiy uzish kuchi	Xas-cho'p miqdori, %
4	133	Ma-shina	I	4,8	35,1	-	2	153	4,4	28,8	4,4
		Ma-shina	II	5,1	35,1	-	1,9	148	4	27	5,5

[11]

Lavsan tolasining fizik mexanik xossalari

No	Ko'rsatkichlar	O'lchov birliklari	Qiymatlari
1	Chiziqli zichligi	mteks	167
2	Uzulish kuchi	sN	5,44
3	Modal uzunlik	mm	35,4
4	Shtapel uzunlik	mm	36,3
5	Tola uzunligi	mm	34,9
7	Uzayishi	%	36,2
8	Dag'al va yopishqoq tolalar	%	0,019
9	Kesilmagan tolalar	%	0,087
10	1 sm.dagi jingalaklilar soni	dona	11
11	Nisbiy uzilish kuchi	sN/teks	32,6

[11]

Sintetik va paxta tolalarning aralashmasidan yigiriladigan ipning nisbiy uzilish kuchini A.N.Vanchikov taklif etgan formula orqali aniqlanadi. [12] Bu formulaning umumiy ko`rinishi quyidagicha

$$R_{ap} = R_{map} \cdot K_{ap}$$

bu yerda;

R_{ap} - paxta va kimyoviy tolalardan olingan ipning nisbiy pishiqligi sN/teks; R_{map} - aralashmadagi tolalarning o`rtacha nisbiy pishiqligi, sN|teks; K_{ap} - aralashmadagi tolalarning pishiqligi koeffitsienti;

K_{ap} - quyidagi formula yordamida aniqlanadi

$$K_{ap} = K_1 - a\beta_2 + b\beta_2^2$$

Bu yerda: K_1 -kam cho`ziluvchan tolaning pishiqligi bo`yicha koeffitsienti;

β_2^2 - ko`p chrzuluvchan komponentning ulushi, %.

$a....b$ – koeffitsientlar,

Bu koeffitsientlar quyidagicha aniqlanadi.

$$a = 1 - \sqrt{\frac{\varepsilon_1}{\varepsilon_2}}$$

$$b = \left(1 - \sqrt{\frac{\varepsilon_1}{\varepsilon_2}}\right) \sqrt{\frac{T_1}{T_2}}$$

bu yerda: $\varepsilon_1, \varepsilon_2$ - komponentlarning nisbiy cho`ziluvchanligi.;

T_1 -kamroq cho`ziluvchan tolaning chiziqli zichligi, teks.;

T_2 - ko`proq cho`ziluvchan tolaning chiziqli zichligi, teks.;

r -tolaning struktura xususiyatlariga bog`liq koeffitsient;

($r=1.1$ - bo`lishi mumkin, qachonki paxta tolasi viskoza tolasi bilan aralashtirilgan bo`lsa; $r=1$ -bo`lishi mumkin, qachonki paxta sintetik tolalar bilan aralashtirilgan bo`lsa.

$r=0.8$ -bo`lishi mumkin, qachonki viskoza sintetik tolalar bilan aralashtirilgan bo`lsa.

$r = 0.6$ -bo`lishi mumkin, qachonki viskoza bilan nitron aralashtirilgan bo`lsa).

$$\begin{aligned}
 K_1 &= \left(1 - 0,0375 \cdot H_0 - \frac{2,65}{\sqrt{\frac{T_p}{T_c}}} \right) \cdot \left(1 - \frac{5}{L_c} \right) k\eta = \\
 &= (1 - 0,0375 \cdot 3,5 - \frac{2,65}{\sqrt{\frac{29}{0,153}}}) (1 - \frac{5}{35,1}) 0,98 \cdot 1,0 = \\
 &= 0,676 \cdot 0,86 \cdot 0,96 = 0,5461.
 \end{aligned}$$

$$a = 1 - \sqrt{\frac{8,7}{36,2}} = 0,51$$

$$b = \left(1 - \sqrt{\frac{8,7}{36,2}} \right) \sqrt{\frac{153}{170}} = 0,48$$

$$K_{ap} = 0,5461 - 0,51 \cdot 0,33 + 0,48 \cdot 0,33^2 = 0,3778$$

$$R_{ap} = (28,8 \cdot 0,67 + 32,6 \cdot 0,33) \cdot 0,3778 = 11,35 \text{ sN / teks}$$

Tegishli formulalar yordamida ipning nisbiy uzilish kuchini aniqlash natijasini ip sifatiga qo`yilgan talab bilan solishtirib aralashmaning shu varianti mos kelishini baholanadi.

2. 3.Yigirish tizimi va usulini asoslash

Tolalardan ip hosil qilish ketma-ketligini yigirish tizimi deb atash qabul qilingan. Bunda yigirish tizimi tushunchasi fakat jarayonlar ketma-ketliginigina emas, balki texnologik jihozlar ro'yxatini yigirish korxonalarida qabul qilinish tartibini ham o'z ichiga oladi.

Tabiiy va kimyoviy tolalardan ip yigirishning quyidagi asosiy tizimlari mavjud: oddiy (kard), qayta tarash va apparat tizimlari. Bu tizimlar asosan ikkita belgilovchi alomatlari - tarash usuli va mahsulotni ingichkalashtirish usullari bilan farqlanadi.

Oddiy yigirish tizimi bo'yicha o'rta chiziqli zichlikdagi iplar yigiriladi. Bunday iplar keng assortimentdagi ip gazlamalar va trikotaj matolari ishlab chikarish uchun foydalaniladi.

Bitiruv malaka ishida tanlangan chiziqli zichlikdagi iplarni yigirish uchun karda tarash tizimini va halqali yigirish usulni qabul qilaman.

Ushbu tizimda ip yigirishni zamonaviy yutuqlari, tavsiyalar va tajribalar asosida qabul qilingan jihozlarni ro'yxati 6-jadvalda keltirilgan.[13, 14, 15]

Bu tizimda asosan Rieter va Savio firmalarining mashinalarini olish rejalashtirilgan. Rieter firmasi paxta va kimyoviy tolalardan halqali va pnevmomexanik usullarda ip yigirish uchun mo'ljallangan to'la texnologik zanjirni tashkil etuvchi jihozlarni ishlab chiqaradi. Savio firmasi esa iplarni o'rash, qo'shib o'rash va pishitish mashinalari yetkazib beradi.

Qabul qilingan jihozlar o'zining konstruktiv, texnik va texnologik avfzalliklari bilan, jumladan yuqori unumdorligi, avtomatlashganligi va mahsulot sifatini yuqori bo'lishi bilan ajralib turadi.

Ushbu tizim asosida quyidagi jihozlarni qabul qilaman

№	Jihoz nomi	Jihoz rusumi
1	Avtomatik toy tituvchi	UNIfloc A 11
2	Toy tituvchi	V 34
3	Og`ir aralashmani ajratuvchi	A 48
4	Qaytim va chiqindi titib-ta`minlovchi	V 25
5	Dastlabki tozalovchi	V 12
6	Aralashtiruvchi	UNImix B72R
7	Tola jamlagich va titib-ta`minlagich	1x UNIstore A 79 R
8	Aralashtiruvchi	UNIBlend A81
9	Tola jamlagich va titib-ta`minlagich	3x UNIstore A 79 S
9	Kondensor	A 21
10	Tarash mashinalari	S 70
11	Piltalash mashinalari	SB –D 45
12	Piltalash mashinalari	RSB –D 45
13	Yigirish mashinasi Air-Jet Spinning Machine	J 26

Ko`rsatilgan jihozlar uzining avfzalliklari bilan, jumladan yuqori unumdorligi avtomatlashganligi va mahsulot sifatini yukori bo`lishini ta`minlaydi. Quyida jihozlarning texnik tavsiflari keltirilgan.

Titish-tozalash agregatida avtomatik toy tituvchi UNIfloc A11 dan chiqayotgan, titilgan tolalar dastlabki og`ir aralashmadan tozalovchi A48 da tozlanadi. UNIClean B12 da yirik nuqsonlardan tozlangandan keyin aralashtiruvchi mashina UNImix B72 da aralashtiriladi. So`ngra tolalarni jamlagich va titib-ta`minlagichga beriladi. Keyin kamerali aralashtiruvchi mashina UNIBlend A81 da

qaytimlar va kimyoviy tolalar bilan aralashtiriladi. Kimyoviy tolalar esa toy tituvchi V 34 da titilgach mayin tozalovchi mashinada qayta ishlanadi va tarash mashinalariga taqsimlovchi tizimiga uzatiladi.

Kursatilgan jixozlar uzining avzalliklari bilan, jumladan yukori unumdorligi avtomatlashganligi va maxsulot sifatini yukori bulishini ta`minlaydi. Kuyida jixozlarning texnik tavsiflari keltirilgan.

Avtomatik toy titgichning texnik tavsifi

Ishlatiladigan tola uzunligi, mm	65 gacha
Unumdorligi, kg soat	
birinchi nav tola uchun	1200
quyi navlvr uchun	600
Titilgan bulakcha og'irligi, mg	20 - 50
O'rnatilgan quvvat, kVt	11,5
Stavkaning uzunligi, m	7,2 – 47,2
Mashina uzunligi, mm	12913-52913
Mashinani kengligi, mm	5351 (6536)
Balandligi, mm	2763
Mashina massasi, kg	3320

B 3/4 Titib ta`minlovchi mashina texnik tavsifi

Ishlatiladigan xom ashyo	paxta, kimyoviy tola va ularni aralashmasi
Tola uzunligi, mm	65 gacha
Unumdorligi, kg soat	600 gacha

O'rnatilgan quvvat, kVt	2,85
Mashinani ishchi kengligi, mm	1200
Kamera hajmi, kg	25-40
Gabarit o'lchami: mm	
uzunligi	3250
(ta'minlovchi qurilma uzunligi)	3000; 4500; 6000; 7500; 9000
Balandligi	3000
Ventilyator quviri bilan	3500
Kengligi	1600

Qaytim va chiqindi titib-ta'minlovchi B 25

Ishlatiladigan xom ashyo paxta, kimyoviy tola va ularni qaytimlari

Tola uzunligi, mm	65 gacha
Unumdorligi, kg soat	60 gacha
O'rnatilgan quvvat, kVt	3.15
Mashinani ishchi kengligi, mm	750
Gabarit o'lchami: mm	
uzunligi	5000
(ta'minlovchi qurilma uzunligi)	3000; 4500; 6000; 7500; 9000
Balandligi	2050
Kengligi	1150
Massasi, kg	1770

Tozalovchi UNIClean B12 mashinasini texnik tavsifi

Ishlatiladigan xom ashyo paxta, kimyoviy tola
va ularni aralashmasi

Tola uzunligi, mm	60 gacha
Unumdorligi, kg soat	1400 gacha
O'rnatilgan quvvat, kVt	15,25
Mashinani ishchi kengligi, mm	1600
Gabarit o'lchami, mm uzunligi	2205
Balandligi	2000
Ventilyator quviri bilan	2500
Kengligi	1040
Mashina massasi, kg	1180

Aralashtiruvchi UNImix B72R mashinasini texnik tavsifi

Xom ashyo	paxta, kimyoviy tola, aralashma
Unumdorligi, kg soat	800 gacha
O'rnatilgan quvvat, kVt	17,
Gabarit o'lchami, mm	
uzunligi	7830
kengligi	1514
balandligi	4173
Og'irligi, kg	3850

Tola jamlagich va titib-ta'minlagich UNIstore A 79 R

Xom ashyo	paxta, kimyoviy tola, aralashma
Unumdorligi, kg soat	1100 gacha
O'rnatilgan quvvat, kVt	12,6

Gabarit o'lchami, mm	
uzunligi	1526
kengligi	1514
balandligi	3981
Og'irligi, kg	1820

Aralashtiruvchi UNIBlend A81 mashinasini texnik tavsifi

Xom ashyo	kimyoviy tolalar va aralashma
Unumdorligi, kg/soat	1000 gacha
O'rnatilgan quvvat, kVt	24.7
Gabarit o'lchami, mm	
uzunligi	11940
kengligi	1600
balandligi	4663
Og'irligi, kg	13690

Agregatda avtomatik toy tituvchi UNIfloc A11 dan chiqayotgan, titilgan tolalar dastlabki tozalovchi UNIClean B12 da yirik nuqsonlardan tozalangandan keyin aralashtiruvchi mashina UNImix B70 da aralashtiriladi. So'ngra tolalarni mayin tozalovchi mashina UNIflex B60 da qayta tozalanadi va tarash mashinalariga taqsimlovchi tizimiga uzatiladi.

UNIflex B60 mashinasining texnik tavsifi

Xom ashyo	paxta, lub
Unumdorligi, kg/soat	500 gacha

O'rnatilgan quvvat, kVt	9 gacha
Mahsulotni transportirovka qilish	pnevmatik
Baraban tezligi, min	1300
Gabarit o'lchami, mm	
uzunligi	1430
kengligi	1800
balandligi	3850
Og'irligi, kg	2080

Rieter firmasining so'nggi yutuqlaridan biri bu C70 modeldagi yuqori unumdorlikga ega bo'lgan karda tarash mashinasidir. Mashinaning unumdorligi 280 kg/soat gacha bo'lib, shu kunlarda dunyoning turli hududlarida 2000 dan ortiq shunday mashinalardan foydalanilmoqda.

C70 modeldagi karda tarash mashinasidir texnik tavsifi

Ishlatiladigan tola	paxta, kimyoviy tola
Tolani uzunligi, mm	65 gacha
Unumdorligi, kg soat	220 gacha
Tosni diametri, mm	600 - 1000
Tosni balandligi, mm	1000 - 1300
Ishchi kengligi, mm	1500
Gabarit o'lchami,mm	
uzunligi	3325 (6181)
kengligi	2380
balandligi	3470
Piltaning chiziqli zichligi, kteks	4-20

Tolalar to'shamining massasi, g/m	650-950
O'rnatilgan quvvat, kVt	21.0-21.7
Pilta chiqarish tezligi, m/min	330 gacha

Pitalash mashinalari texnik tavsiflari

7-jadval

Ko'rsatkichlar	texnik tavsiflari	
O'tim	1-o'tim uchun	2-o'tim uchun
Mashina rusumi:	SB-D 45	RSB-D 45
Chiqarish qismi	1	1
Quvvati, kVt	11	11
Chiqaruv tezligi, m/min	1100	1100
Qo'shish soni	6-8	6-8
Cho'zish	4,4-11,7	4.5-11.6
Idishni o'lchami, mm:		
kirishda	500-1000	500-1000
chiqishda	300-1000	300-1000
balandligi	900-1200	900-1200
Avtomatik chiqarish	-	+
Rostlovchi	-	+
Uzunligi, mm	10860	10860
Kengligi, mm	2460	2460
Piltaning chiziqli zichligi, kteks	1.25-7.0	1.25-7.0

J 20 Air-Jet Spinning Machine yigirish mashinalari

Aerodinamik yigirish mashinasida piltani ta'minlash, diskretlash, uzatish va ip hosil qilish, ipni o'rash jarayonlarining mohiyati o'ziga xos tartibda amalga oshiriladi. Biroq ushbu jarayonlarni amalga oshiruvchi mexaniz va qurilmalar, ularning qismlari, mashinaga harakat uzatish va uni boshqarishda yangi texnik yechimlar qo'llanilishi hisobiga ip sifati oshirilishi, unumdorlikni kattaligi iqtisodiy samaradorlikni o'sishiga olib keladi. Bu esa juda muhim natijadir.

Rieter firmasi aerodinamik usulda ip yigirish jihozlari ishlab chiqarishda yangi davrni yaratdi. Yangi J 20 Air-Jet Spinning Machine mashinasi bu boradagi eng ahamiyatli yangilik bo'lmoqda. Bu iqtisodiy hamda texnologik jihatdan yutuqlarga asos bo'ladi.

J 20 Air-Jet takomillashtirilishi hisobiga uning qurilmalari 200 ta, chiqarish tealigi 500 m/minga oshirildi. Mashinada avtomatli moslamalar qo'llanilishi hisobiga unumdorlik ortishi ta'minlanadi. Bu o'z navbatida qurilmalarni turli tolali mahsulotga rostlashni umumiy usullari va tezkorligi hisobiga erishiladi.



1-rasm. J 26 Air-Jet Spinning Machine

Ip sifatini yuqori bo'lishini ta'minlovchi qurilmalari ipni sifatli ulash va mukmmal o`rama-bobina shakllantirish natijasida erishiladi. Bu ip uzilishini 50% gacha kamayishiga olib keladi.



2-rasm. Yigirish qurilmasi

Pnevmomexanik yigiruv mashinasi

Ko`rsatkichlar	O`lchov birligi	Qiymatlari
Yigirish qurilmasi	-	J 26
Ip chiqarish tezligi	m/ min	500 gacha
Tolaning uzunligi	mm	60 gacha
Yigirish qurilmalari soni	dona	200 gacha
Yigirish qurilmalari oralig`i	mm	260
Ipning chiziqli zichligi	teks	167-10 (Nm Nm 6 – 100)
Cho`zish qiymati	-	43-317
Bobinaning maksimal o`lchami	mm	Diametri 300 (270); balandligi 150
Bobinadagi ip massasi	kg	4.5 gacha
O`rama shakli	-	TSilindrsimon (konussimon)
Pilta taxlangan idishni o`lchamlari	mm	Diametri:467,530 Balandligi: 900 -1200
Sektsiyadagi yigirish qurilmalari soni	dona	20
O`rnatilgan quvvat	kVt	99-114
Tashqi o`lchamlari	mm	Uzunligi: 11597- 34639 Kengligi: 1000 Tazlarsiz 1200 Tazlar bilan 3063

3. YIGIRISH REJASINI TUZISH

Har bir yigiruv korxonasida ma`lum yo`g`onlikdagi va ma`lum sifatli ip ishlab chiqarilishi lozim. Yigirilgan ip yaxshi sifatli va tan narxi past bo`lishi kerak. Shu maqsadda yigiri tizimiga, xom ashyo sifatiga, ayniqsa, tolaning uzunligi va ingichkaligiga qarab, ma`lum yo`g`onlikdagi ip ishlab chiqarish uchun korxonada yigirish rejasi tuziladi. Bu rejada hamma mashinalardan olinadigan yarim tayyor maxsulotlar va ipning chiziqli zichliklari, qo`shilish soni, pilik va ipning pishitilish koeffitsienti, bir metrga to`g`ri keladigan buramlar soni, cho`zish kattaligi va mashinalarning mahsulot chiqarish tezliklari ko`rsatiladi. Yigirish rejasi qanchalik optimal tuzilsa, korxona shunchalik samarador ishlaydi.

Korxonada texnologik jarayonlar to`g`ri borishi uchun rejadagi har bir ko`rsatkich atroflicha asoslangan bo`lishi lozim. Odatda ko`rsatkichlarni tanlashda maxsus muassasalar tavsiyalariga, ilmiy tekshirish ishlari natijalariga, korxonalarning tajribalariga asoslaniladi.

Yigirish rejalarini tuzish ip yigirish texnologik jarayonlarining borish tartibiga mos ravishda amalga oshiriladi. Yigirish rejasini tuzishda TSNIXBI tavsiyasi va Oq-oltin korxonasi tajribalari asos qilib olidi.

3.1. Yigirish mahsulotlarining chiziqli zichligi va cho`zishni asoslash

1. Tarash mashinasi

a) Texnik xarakteristikasi bo'yicha $T_p = 3,57 - 7,0$ kteks;

b) ITI tavsiyasi $T_p = 4$ kteks $E = 100$;

v) korxona tajribasi $T_p = 5,0$ kteks $E = 117$;

g) Loyihada qabul qildim $T_p = 5,5$ kteks $E = 110$

2. Piltalash birinchi o'tim

a) Texnik xarakteristika bo'yicha

$$T_p = 2.8-5.0 \text{ k teks} \quad d = 6-8 \quad E = 4 - 11$$

b) ITI tavsiyasi

$$T_p = \text{k teks}; \quad E = 6; \quad d = 6;$$

v) korxona tajribasi

$$T_p = 5.0 \text{ k teks}; \quad E = 8; \quad d = 8;$$

g) Loyihada qabul qildim

$$E = 8; \quad d = 8; \quad T_p = 5.5 \text{ k teks}.$$

3. Piltalash ikkinchi o'tim

a) Texnik xarakteristika bo'yicha

$$T_p = 2.8-5.0 \text{ k teks}; \quad d = 6-8; \quad E = 4 - 11;$$

b) ITI tavsiyasi

$$T_p = 4 \text{ k teks}; \quad E = 6; \quad d = 6;$$

v) korxona tajribasi

$$T_p = 5.0 \text{ k teks}; \quad E = 8; \quad d = 8;$$

g) Loyihada qabul qildim

$$E = 8; \quad d = 8; \quad T_p = 5.5 \text{ k teks}.$$

4. Yigirish mashinasi

a) Texnik xarakteristika bo'yicha

$$T = 29.5-8,8 \text{ teks}; \quad E = 120-174 \text{ gacha};$$

b) ITI tavsiyasi

$$T_p = 21-30 \text{ teks}; \quad E = 120-174;$$

g) Loyihada qabul qilingan iplar uchun

$$T_i = 29 \text{ teks} \quad E = \frac{T_{\kappa} d}{T_u} = \frac{5500}{29} = 189,7$$

3.2. Ipni pishitish darajasini hisoblash

Yigirish rejasini tuzishda pilik va ipning pishitilish darajasini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$K = \frac{\alpha \cdot 100}{\sqrt{T}}$$

bu yerda: α - pishitish koefitsienti;

T- mahsulotning chiziqli zichligi.

Pishitish koefitsientlari[17]

$$T_I=29 \text{ teks uchun } \alpha_{\phi} = 41-44$$

Ipni 1 metridagi buram soni

$$K = \frac{\alpha \cdot 100}{\sqrt{T}} = \frac{42 \cdot 100}{\sqrt{29}} = 780 \text{ bur} / m$$

3.3. Mashinalarni chiqaruvchi a`zolarini tezliklarini qabul qilish va asoslash

1. Tarash mashinasi

a) Texnik xarakteristkasi bo'yicha

$$P=200 \text{ kg/soatgacha};$$

b) ITI tavsiyasi $P=30-32 \text{ kg/soat}$

v) korxona tajribasi $P=48 \text{ kg/soat}$

g) Loyihada qabul qildim $P=100 \text{ kg/soat}; \mathcal{G} = 220 \text{ m/min}$

